



OLIV TA'LIM TIZIMI SIFATINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY MENEJMENTNING O'RNI VA AHAMIYATI

Davlatov Soibnazar Xo'janiyazovich

fil.fan.nomzodiKutubxona-axborot faoliyati

kafedراس dotsenti O'zbekiston davlat

san'at va madaniyat instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimi sifatini oshirishda menejment funksiyalaridan foydalanish holati o'rganilgan, tahlil qilingan va oliy ta'lim tizimi sifatini oshirish yo'llari takliflari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim tizimi, sifatli ta'lim, menejment funksiyalari, sifat menejmenti, oliy ta'lim tizimini innovatsion boshqarish

Аннотация: В данной статье изучено, проанализировано использование функций управления в повышении качества системы высшего образования, а также представлены предложения по путям повышения качества системы высшего образования.

Ключевые слова: Система высшего образования, качественное образование, функции управления, менеджмент качества, инновационный менеджмент системы высшего образования.

Abstract: In this article, the use of management functions in improving the quality of the higher education system is studied, analyzed, and suggestions for ways to improve the quality of the higher education system are presented.



Key words: Higher education system, quality education, management functions, quality management, innovative management of the higher education system

Yangi O‘zbekistonni qurishda oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’lim tizimi samaradorligini oshirish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish dolzarb masala qatorida o‘z aksini topmoqda.

Boshqaruv – bu qadimgi san’at va eng yangi fandır. Boshqaruv sohasidagi mutaxassislar fikricha, boshqaruv siyosiy, iqtisodiy texnologik, ijtimoiy va axloqiy tizimlarning qismi bo‘lib, o‘zining yo‘nalishi, tamoyillari, uslublariga ega. Boshqacha qilib aytganda, boshqaruv jiddiy ilmiy-uslubiy asosga tayanadi. Har bir fan bilimlar majmui bo‘lib, jamiyat va tabiatdagi xodisa va qonunlarni anglab tushuntirishga harakat qiladi. Fan sifatida boshqaruv yangi murakab xodisalarni aniqlashga, tabiatdagi tartib, qonunlarni ochishga xarakat qiladi. Nazariya uchun tadqiq obyektni har tomonlama ta’riflab berish emas, balki yangi bilimlar shakllanishini ta’minlash uchun uning aloqalarini, asosiy xususiyatlarini o‘rganish, umumiy qonuniyatini aniqlash muhimdir. Nazariya tadqiqot obyektiga mos bo‘lgan uslublarni aniqlaydi, boshqaruv obyektiga faol ta’sir ko‘rsatish uslublarni ishlab chiqadi, jarayonlarni istiqbollashtiradi. Boshqaruv nazariyasining rivojlanishi, uning yutuq va mag‘lubiyatlari, o‘ziga xos farazlar yaratilishi va inkor etilishi ushbu fikrni tasdiqlaydi. Fan dunyoni anglash uchun kuchli vosita - tahlil uslubiga ega, ya’ni voqeyelikni qism, xususiyat, rivojlanish bosqichlarga bo‘ladi va umumlashtiradi. Sintez uslubi tadqiq etilayotgan jarayonni yaxlit mazmunini tiklaydi.

Ta’lim sifatini boshqarish (ta’lim sifati menejmenti) ta’limni boshqarishning umumiy tuzilmasi tarkibiga kiradi. Bunda ta’lim sifati menejmenti rahbarning yakkaboshchiligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan va amalda o‘z samaradorligini



ko'rsatgan boshqarishning chiziqli tuzilmasini inkor etmaydi. O'z o'rnida, sifat menejmentining joriy etilishi umumiy boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi – ta'lim muassasasi rahbari, xodimlari va manfaatdor jamoat tashkilotlari vakillari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Vazifalarning bajarilish ketma-ketligi, vazifalarning o'zi, bajarish yo'llari, alohida usul va xarakatlarning batafsil tartibi, ta'lim sifatini ta'minlovchi asos sifatida, qabul qilingan boshqaruv qarorlarining samarali ijrosini kafolatlaydi.

Ta'lim va tarbiya eng noyob kapital sifatida qadrlanayotgan bugungi sharoitda ta'lim natijalarini baholash samaradorligini oshirish va usullarini takomillashtirish mexanizmlarini joriy etish orqali barcha insonlar uchunsifatli ta'lim olish imkoniyatlari yaratilmoqda. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasiga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Bu esa o'z navbatida kadrlartayyorlash sohasi oldiga ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini zamonaviy

talablar asosida oshirish vazifasini qo'yimoqda.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"da "Oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifatini oshirish, ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish"¹ bo'yicha ustuvor vazifalar belgilangan. Bu esa, oliy ta'lim tizimi samaradorligini oshirishda menejment funksiyalaridan samarali foydalanishni taqozo etadi.

Ta'lim sifati ta'lim tizimi va ta'lim muassasasi faoliyatining shaxsiy, ijtimoiy va me'yoriy talablarining real erishish mumkin bo'lgan natijalari bilan tavsiflanadi. Ta'lim muassasasida sifat menejmentini tashkil etish murakkab jarayonlardan biri hisoblanib, oliy ta'lim muassasasida o'tilayotgan fanlarning nazariy yoki amaliy xususiyatga ega

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlar to'plami. – T., 2017. – 37 b.



bo‘lishidan qat’iy nazar, doimo o‘zgarish va yangilanishda bo‘ladi.

Ta’lim sifatining eng muhim tavsiflari quyidagilardan iborat bo‘ladi bilimlar hajmi kasbiy faoliyatni amalga oshirishga muvofiq kelishi lozim. Bunda bilimlar miqdori olingan axborot miqdori emasligini tushunish kerak. bilimlar tuzilishi turli tipdagi bilimlar bilan fan va faoliyatning turli sohalariga mansublik nisbatini ifodalaydi. Bilimlarning unumdorligi va amaliy qimmatini ularning uyg‘unligiga bog‘liq bo‘ladi. professional fikrlash uslubi bilimlarni boshqarish qobiliyatini aks ettiradi. Ko‘pincha talabalar o‘z olgan bilimlarini amaliy faoliyat vazifalari bilan bog‘lay olmaydilar. Bu yerda fikrlash uslubi o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Ta’lim sifatiga salbiy ta’sir etayotgan muammolarni bartaraf etish aniq mexanizmga asoslangan bo‘lishi lozim. Xususan, Oliy ta’lim tizimi sifatini oshirishda menejment funksiyalarining o‘rni bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelinadi Ta’lim mauassasasida ta’lim sifati menejmenti – bu loyihalashtirish, ya’ni ta’lim maqsadlarini va ularga erishish yo‘llarini belgilash, ta’lim jarayonini tashkil etish va uning ishtirokchilarini sifatli mehnatga qiziqishini uyg‘otish, maqsadlardan chetlanishlarni aniqlash va rivojlanishdagi o‘zgarishlarni kuzatish tizimi (monitoringi), natijalarni boshqarish va tahlil qilish jarayonlaridir.

Ta’lim tizimi sifati, eng avvalo, yuksak malakali rahbar kadrlar faoliyati bilan belgilanadi. Aynan oliy ta’lim tizimi samaradorligini oshirishda rahbarlarning samarali boshqaruv faoliyati va funksiyalarini o‘rganish lozim. Bugungi kunda ta’lim tarbiyaning samarasi va ta’sirchanligi boshqaruv tizimida faoliyat yuritayotgan rahbarlarning ma’suliyatliligiga, qobiliyatliligiga, ishonchliligi, pedagogik mahorati, kompetentligiga, pedagogik muloqati, samimiyligi, adolatparvarligi ta’lim tizimiga qaytarzda yondashishiga bog‘liqdir. Yangi bilimga asoslangan iqtisodiyot sharoitida oliy ta’lim tizimini innovatsion boshqarish konsepsiyasi orqali ta’lim tizimi sifatini oshirish imkoniyati yanada kengayadi. Bu esa, bugungi shiddatli o‘zgarishlar davrida eng dolzarb muammolardan biridir.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlar to‘plami. – T., 2017. – 37 b.
2. Ahlidinov R.Sh. Ta’limni boshqarish. – Toshkent: Sharq, 2003.
3. Nizametdinov A., Ahmedova H. Elektron ta’lim metodologiyasi rivojlantirishning usullari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. –2022. –T. 1. –No. 1. –C. 29-31.
4. To‘ychiyeva N. Elektron Ta’lim Tizimining Afzalliklari Va Kamchiliklari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. –2022. –T.
5. <http://www.pedagog.uz>